

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ERGASHEVA MUQADDAS SHUHRAT QIZI

**SUG‘URTA TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NATIJALAR HISOBINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation the abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
economical sciences**

Ergasheva Muqaddas Shuhrat qizi Sug'urta tashkilotlarida moliyaviy natijalar hisobini takomillashtirish.....	3
Эргашева Муқаддас Шухрат қизи Совершенствование учета финансовых результатов в страховых организациях.....	27
Ergasheva Muqaddas Shuhrat qizi Improvement of accounting of financial results in insurance organizations.	51
E'lon qilingan ishlar ro'uxati Список опубликованных работ List of published works.....	56

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ERGASHEVA MUQADDAS SHUHRAT QIZI

**SUG'URTA TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NATIJALAR HISOBINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2022.3.PhD/Iqt2247 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdusalomova Nodira Baxodirovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Axmedjanov Karimjon Bakidjanovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tashnazarov Samidin Nizamovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "___" _____soat ___dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy, Tel.: (71) 239-28-72; faks: (71) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy, Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "___" _____kuni tarqatildi.

(2024-yil "___" _____dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi).

S.U. Mexmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo amaliyotida mamlakatlar iqtisodiyotini yanada rivojlantirish uchun sugʻurta tashkilotlari faoliyatini tubdan isloh qilish, rivojlantirish orqali korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirishning ahamiyati ortib bormoqda. Sugʻurta xizmatlari bozorini rivojlantirishda istiqbolli qarorlarni qabul qilishda moliyaviy axborotlarning ishonchliligi va shaffofligini taʼminlash muhim hisoblanadi. Xalqaro iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ning statistik maʼlumotlariga koʻra, “sugʻurta sohasining dunyo yalpi ichki mahsulotiga nisbatan ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. 2022-yil yakuni boʻyicha AQShda 12,7 %, Angliya 11,1 %, Germaniya 6,8 % ni tashkil qilgan”¹. Shu boisdan, mamlakat iqtisodiyotida sugʻurta tashkilotlarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar asosida tashkil qilish zarurati dolzarbligini yanada oshiradi.

Jahon iqtisodiyotida sugʻurta tashkilotlari buxgalteriya hisobi va moliyaviy natijalar hisobini takomillashtirishga qaratilgan keng qamrovli tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Sugʻurta faoliyatida innovatsion yondashuvlarni kuchaytirish, moliyaviy faoliyatni xavflardan himoya qilishni taʼminlashda raqamli texnologiyalardan foydalanish, toʻgʻridan-toʻgʻri sugʻurta va qayta sugʻurta xizmatlarini rivojlantirish, sugʻurta tashkilotlari faoliyatini kengaytirish, iqtisodiyotdagi boʻsh pul mablagʻlaridan unumli foydalanish, sugʻurta faoliyatining xalqaro standartlarga muvofiqligini taʼminlash, ularning hisobini yuritish, daromad va xarajatlarni tan olish, sugʻurta tashkilotlarining moliyaviy natijalarini MHXS asosida tashkil qilish muammolari bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yoʻnalishlaridan hisoblanadi.

Oʻzbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tarkibida milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotiga tobora integratsiyalashuvi, global xavf-xatarlarning oshib borishi sharoitida xalqaro sugʻurta hamjamiyati bilan hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Respublika hukumati tomonidan sugʻurta bozorini tubdan isloh qilish, davlatga tegishli yirik sugʻurta kompaniyalarini transformatsiya qilish, sugʻurta kompaniyalari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini taʼminlash, sugʻurta bozorining professional ishtirokchilari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilishning xalqaro standartlarini joriy qilish, eng muhimi, sugʻurta mahsuloti isteʼmolchilari manfaatlarining ishonchli himoyasini taʼminlash borasida qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Sohaning ilmiy tadqiqotchi-ekspertlari va tahlilchilari oldida dolzarb ahamiyatga ega qator vazifalar qatorida sugʻurta tashkilotlarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq moliyaviy natijalar hisobini takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqotlar koʻlamini yanada kengaytirish vazifalarini ham qayd etish lozim. Sugʻurta tashkilotlarining oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda hisob siyosatini takomillashtirish, moliyaviy natijalar hisobini yuritishda biznes jarayonlarining taqdim etilgan tasnifi kesimida buxgalteriya hisobining funksional obyektlarini asoslash, sugʻurta tashkilotlarining faoliyatini real baholash uchun moliyaviy javobgarlik markazlari boʻyicha ularni

¹ <https://www.oecd.org/finance/insurance/oecdinsurancestatistics> sayti malumotlari.

taqsimlash usullarini joriy etish, sugʻurta faoliyati davomida sugʻurta vositachilari tomonidan sodir etilgan tizimli qoidabuzarliklar va qoʻshimcha daromadlarni hisobga olish tartibi ishlab chiqish, MHXSga muvofiq sugʻurta tashkilotlarida moliyaviy hisobotni tuzish va shakllantirish modelini ishlab chiqish vazifalari mazkur muammolar tadqiqiga bagʻishlangan ilmiy izlanishlarning dolzarbligini namoyon etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi farmoni, 2021-yil 23-oktyabrdagi PQ-5265-son “Sugʻurta bozorini raqamlashtirish va hayot sugʻurtasi sohasini rivojlantirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi, 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga oʻtish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi, 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412-son “Oʻzbekiston Respublikasining sugʻurta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini taʼminlash chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga oid boshqa meʼyoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni maʼnaviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Sugʻurta tashkilotlarida buxgalteriya hisobining nazariy hamda uslubiy asoslari xorijlik olimlar Katica Tomic, J.Tomas, D.Nissim, Y.Sibindi, L.Cohen, Sait Patir va boshqalarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan². MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlari N.N.Kalashnikova, F.N.Belokoneva, N.L.Veshunova, S.V.Kulikov, E.A.Julega, A.Y.Petron, L.A.Bernstayn, S.A.Boronenkova, I.S.Vinnikova, S.V.Kulikov, V.V.Kovalev, A.L.Nelson va boshqalarning ilmiy ishlarida sugʻurta tashkilotlarida buxgalteriya hisobining ayrim yoʻnalishlari tadqiq etilgan³.

²Kartica Tomic “Financial reporting in insurance and international financial reporting standarts” AIDA Europe research series on insurance law and regulation, Doron. Nissim Analysis and valuation of insurance companies. Center for Excellence in Accounting & Security Analysis. November 2010. Cash flow king in valuations? Financial Analysts Journal, 63, 56-68. 2007. Management 2021. <https://doi.org/10.3390/jin14120566>. Jadi Diara. An Empirical Analysis of Determinants of Financial Performance of Insurance Companies in the United Kingdom. Ph.D. dissertation, University of Bradford, West Yorkshire, UK.2015. Nandan, Ruvendra. 2010. Management Accounting Needs of Companies and the Role of Professional Accountants: A Renewed Research Agenda. Journal of Applied Management Accounting Research 8: 65-78. Sean Mooney, Larry Cohen, Addison Shuster. Basic Concept of Accounting and Taxation of Insurance Companies. Fourth Edition. Insurance Information Institute Press New York USA 2000. A research project submitted in partial fulfilment of the requirements of the award of the degree of master of business administration university of Nairobi-2013, The Implementation of IFRS in the Turkish Insurance Industry, <https://www.sciencedirect.com/>, Kamanda Morara, Athenia Bogandi Sibindi. Determinants of Financial Performance of Insurance Companies: Empirical Evidence Using Kenyan Data. Journal of Risk and Financial, 2021 Dr.Sait. Patir “Accounting system and financial for insurance companies,”2018

³Куликов С.В. Финансовый анализ страховых организаций: учебное пособие / С.В. Куликов. О Ростов н/Д.: Феникс, 2009. О 224 с., Городеская О.С. Анализ и совершенствование системы страхования организаций: Монография. – М.: Lennex Corp. – Подготовка макета: Издательство «Нобель Пресс», 2013. – 176 с, Жулега И.А. Методология анализа финансового состояния предприятия: монография / И. А. Жулега; ГУАП. – СПб., 2006. – 235 с., Резникова Е.В. Оценка финансовой устойчивости страховых организаций. // Экономика и

Sug'urtaning iqtisodiy jihatlarini o'zbekistonlik olimlar X.M.Shennayev, Q.M.Qo'ldoshev, H.Boyev, I.G'.Kenjayev, I.X.Abdurahmonov, X.R.Sobirov, D.A.Baratova va boshqalar mavzuga doir ba'zi jihatlarini yoritganlar⁴. Bu masala buxgalteriya hisobi sohasida tadqiqot olib borgan olimlar A.A.Karimov, R.D.Do'smurodov, A.K.Ibragimov, B.A.Xasanov, N.B.Abdusalomova, A.Z.Avloqulov, I.K.Ochilov, M.Xodjayeva, E.A.Akramov, T.Sh.Shog'iyosov, Z.T.Mamatov, A.T.Ibrohimov, M.M.To'laxo'jayeva, M.Yu.Raximov, A.X.Shoyalimov va boshqalarning ilmiy ishlarida keng ko'lamda o'rganib chiqilgan.

Mazkur tadqiqotlarda moliyaviy natijalar hisobining umummetodologik asoslariga tayangan holda ayrim muammolar tashkiliy jihatlarini tadqiq qilingan. Zero, tadqiqotlarga ko'ra, moliyaviy natijalarning nazariy muammolari masalaning bir tomoni bo'lsa, ikkinchi tomoni, uning amaliy jihatdan turli sohalarga mos kelishi hisoblanadi. Sug'urta tashkilotlarida moliyaviy natijalar hisobi bo'yicha tadqiqotlar olib borish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega mavzu hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari

социум. №(14) 2015. с. 342-347. www.iupr.ru, Репина К.В. Оценка финансового состояния страховой компании по данным МСФО-отчетности. // Успехи современного естествознания, №12, 2014. с. 95-96., Швецова И.Н., Пашкевич М.А. Анализ и управление финансовым состоянием страховой компании. // Экономика и социум. № 2(33) 2017. с. 8 www.iupr.ru., Кузминов Н.Н. Особенности бухгалтерского учета в страховых компаниях, Изд. 2. – Москва: Анкил. 2000 г., Страхование: экономика, организация, управление: Учебник; В2 т. – СПбГУ, Подред. Г.В. Черновой. Т.1. С.751, Т.2. С.671- М.: ЗАО Издательство «Экономика», 2010 г. Юлдашев Р.Т. Организационно-экономические основы страхового бизнеса. – М.: Анкил, 2002 г. 205 с. Юлдашев Р.Т., Светкова Л.И. Практика развития страхового бизнеса. – М.: Анкил, 2011 г. 276с, Мамедова, Э.А. Анализ финансовой устойчивости страховщика и отсценка страховых операций [Текст]: науч. жур. / Э.А. Мамедова, З.Т. Шахвердиева. Проблемы современной экономики, 2016. № 1. – С. 137-139, Мозолкина О.А. Особенности финансового анализа деятельности страховых компаний. /Диссертация к.э.н. по специальности 08.00.12, финансового состояния страховой организаци./Дис. ... к.э.н. по специальности 08.00.12. – Санкт-Петербург, Sobirov X.R. Sug'urta faoliyatining rolini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – T.: TMI, 2019, Xakberdiyev Agenda. Journal of Applied Management Accounting Research 8: 65-78. Sean Mooney, Larry Cohen, Addison Shuster. Basic Concept of Accounting and Taxation of Insurance Companies. Fourth Edition. Insurance Information Institute Press New York USA 2000. A research project submitted in partial fulfilment of the requirements of the award of the degree of master of business administration university of Nairobi-2013, The Implementation of IFRS in the Turkish Insurance Industry, <https://www.sciencedirect.com/>, Kamanda Morara, Athenia Bogandi Sibindi. Determinants of Financial Performance of Insurance Companies: Empirical Evidence Using Kenyan Data. Journal of Risk and Financial, 2021 Dr.Sait. Patir "Accounting system and financial for insurance companies,"2018

⁴ Shenayev X.M. O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – T.: TMI, 2021. Baymurotov T.M. O'zbekistonda sug'urta faoliyati va uni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish, i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – T.: Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, 2004, Quldashev K.M. O'zbekistonda o'zaro sug'urtalashning metodologik asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – T.: TMI, 2020. Boyev X.I. Sug'urtalash. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. Nurullayev A.S. O'zbekistonda fermer va dehqon xo'jaliklarini sug'urtalash masalalari, i.f.i. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – T.: BMA, 2007, Abduraxmonov I.X. O'zbekiston Respublikasida javobgarlikni sug'urtalashning amaliyotini takomillashtirish. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – T.: BMA, 2010, Kenjayev I.F. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy rksurslarini joylashtirish samaradorligini oshirish yullari. Iqtisodiyot fanlari buyicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – T.: TMI, 2019, Xalikulova G. Sug'urta tizimi va uning amal qilish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati.

– T.: TMI, 2019.

rejasiga muvofiq FM-6-sonli “O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit va statistika sohalari taraqqiyotining konseptual yo‘nalishi” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sug‘urta tashkilotlarida moliyaviy natijalar hisobini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

moliyaviy natijalarning iqtisodiy mohiyati, sug‘urta faoliyatida daromad va xarajatlarning shakllanish tizimini tadqiq qilish;

sug‘urta tashkilotlarida moliyaviy natijalar hisobining maqsadi, vazifalari, o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib berish;

sug‘urta tashkilotlarining o‘ziga xos xususiyatlari asosida ishchi hisobvaraqa kiritish bo‘yicha takliflar berish;

sug‘urta shartnomalari bo‘yicha daromad va xarajatlarni shakllantirish tartibini takomillashtirish;

sug‘urta kompaniyasida moliyaviy natijalar hisobini yuritishda biznes jarayonlarining taqdim etilgan tasnifi kesimida buxgalteriya hisobining funksional obyektlariga aniqlik kiritish hamda funksional sohalarning samaradorligini oshirish uchun tizim ishlab chiqish;

sug‘urta tashkilotlarining xarajatlari va sug‘urta tashkilotlari faoliyatini real baholash uchun takliflar ishlab chiqish;

sug‘urta tashkilotlarining faoliyat davomida sug‘urta vositachilari tomonidan sodir etilgan tizimli qoidabuzarliklar va sug‘urta operatsiyalaridan kelib tushadigan qo‘shimcha daromad olish manbalari bo‘yicha buxgalteriya hisobi tartibini ishlab chiqish;

sug‘urta operatsiyalarida yuzaga keluvchi xarajatlar va moliyaviy natijalarni shakllantirish hamda sug‘urta to‘lovlarini hisoblash usulini takomillashtirish;

xalqaro standartlari asosida sug‘urta tashkilotlarida moliyaviy natijalar hisobini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy-iqtisodiy faoliyati ma’lumotlari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti sug‘urta tashkilotlarida moliyaviy natijalar hisobini takomillashtirish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar majmuidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida taqqoslash, qiyosiy taqqoslash, kuzatuv, nazariy va amaliy o‘rganish, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, monografik kuzatuv, iqtisodiy matematik tahlil, buxgalteriya hisobi usullari va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy natijasi” tushunchasining iqtisodiy mazmuni sug‘urta shartnomalari bo‘yicha ishlab topilgan sug‘urta mukofotlari va tan olingan boshqa daromadlar bilan tan olingan xarajatlarning farqi hamda zaxiralar o‘zgarishining natijasi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

sugʻurta tashkilotlarining hisob siyosati sugʻurtalangan shaxsning toʻlanmagan sugʻurta mukofoti boʻyicha debitorlik qarzlarni hisobdan chiqarish, sugʻurtalovchi sugʻurtalanadigan shaxsga (benefitsiarga) sugʻurta hodisasi natijasida yoʻqolgan mulkka oʻxshash mulkni taqdim etganida daromad va xarajatlarni tan olishning zamonaviy usullarini alohida tartib sifatida belgilab beruvchi “Sugʻurta shartnomalari boʻyicha daromad va xarajatlarni shakllantirish” bandini kiritish orqali takomillashtirilgan;

sugʻurta xizmatlarini koʻrsatish va majburiyatlarni bajarish bilan bogʻliq xarajatlarni hisobga olishda 2610-“Qayta sugʻurtalash va birgalikda sugʻurtalash shartnomalari boʻyicha boshqa xarajatlar” nomli schyotni kiritish asosida qayta sugʻurtalash va birgalikda sugʻurtalash operatsiyalari hamda sugʻurta kompaniyasini boshqarish bilan bogʻliq boshqa xarajatlar toʻgʻrisidagi axborotni umumlashtirish taklifi asoslangan;

sugʻurta kompaniyasida moliyaviy natijalar hisobini yuritishda biznes jarayonlarining taqdim etilgan tasnifi kesimida buxgalteriya hisobining marketing, sugʻurta mahsulotini ishlab chiqish va sotish, andarrayting, sugʻurta shartnomasini qoʻllab-quvvatlash, yoʻqotishlarni tartibga solish kabi funksional obyektlariga aniqlik kiritish orqali funksional sohalarning samaradorligini oshirish tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sugʻurta operatsiyalari boʻyicha daromad va xarajatlarni hisobga olish variantlarini umumlashtirilib, ularning afzallik va kamchiliklari aniqlashtirilgan;

sugʻurta operatsiyalarini amalga oshirish bilan bevosita bogʻliq asosiy xarajatlar toʻgʻrisidagi buxgalteriya hisobi hamda qoʻshimcha xarajatlar va iqtisodiy mazmunda bir xil boʻlmagan obyektlarni – sugʻurta toʻlovlari va sugʻurta mukofotlari va qaytarib olish summalarini qaytarish – bitta hisob varagʻida hisobga olish tartibi ishlab chiqilgan;

sugʻurta tashkilotlarining buxgalteriya hisobi amaliyotiga joriy etish uchun taklif qilingan 9010-“Sotuvlar” schyoti boʻyicha hisob-kitoblar korrespondensiyasi tavsiya qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qoʻllanilgan yondashuv va usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar, rasmiy manbalardan olingan maʼlumotlar, tadqiqotda sugʻurta tashkilotlarida moliyaviy natijalar hisobini takomillashtirishga doir maʼlumotlarning asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalar hamda “Kafil-sugʻurta” AJ, “Kapital sugʻurta” AJ va “Alfa invest” AJ rasmiy maʼlumotlari, shuningdek, taklif va tavsiyalarning sugʻurta tashkilotlar tomonidan moliyaviy natijalar hisobini takomillashtirishda foydalanilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilmiy tadqiqot ishida ishlab chiqilgan nazariy tavsifdagi xulosa va takliflardan sugʻurta tashkilotlarining moliyaviy natijalarini hisobini takomillashtirish jarayonida ularning faoliyatidagi eng muammoli sohalarni aniqlash, daromad oʻsishi va xarajatlarni kamaytirish zaxiralarini oʻrnatish, shaxsiy sugʻurtalovchining samaradorligini oshirish uchun ilmiy-uslubiy qoidalar tizimini shakllantirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan amaliy takliflardan sugʻurta tashkilotlari moliyaviy-xoʻjalik faoliyatiga toʻgʻri baho berish, foydani oshirish va rentabellikni koʻtarish boʻyicha mavjud ichki xoʻjalik imkoniyatlarini aniqlash orqali ularning moliyaviy holati barqarorligi va shaffofligini taʼminlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sugʻurta tashkilotlarida moliyaviy natijalar hisobini takomillashtirish boʻyicha olingan ilmiy natijalari asosida:

uslubiy yondashuvga koʻra “sugʻurta tashkilotlarining moliyaviy natijasi” tushunchasining iqtisodiy mazmunini sugʻurta shartnomalari boʻyicha ishlab topilgan sugʻurta mukofotlari va tan olingan boshqa daromadlar bilan tan olingan xarajatlarning farqi hamda zaxiralar oʻzgarishining natijasi nuqtai nazaridan takomillashtirishga oid nazariy maʼlumotlardan oliy oʻquv yurtlarining 60410100-Buxgalteriya hisobi va audit taʼlim yoʻnalishi talabalari uchun tavsiya etilgan “Boshqaruv hisobiga kirish” nomli darsligini tayyorlashda foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 2022-yil 13-maydagi 166-sonli buyrugʻi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida sugʻurta shartnomalari boʻyicha ishlab topilgan sugʻurta mukofotlari va tan olingan boshqa daromadlar bilan tan olingan xarajatlarning farqi hamda zaxiralar oʻzgarishining natijasi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan sugʻurta tashkilotlarining moliyaviy natijasi tushunchasi boʻyicha nazariy bilimlarni chuqurlashtirish imkoni yaratilgan;

sugʻurta tashkilotlarining hisob siyosati sugʻurtalangan shaxsning toʻlanmagan sugʻurta mukofoti boʻyicha debitorlik qarzlarni hisobdan chiqarish, sugʻurtalovchi sugʻurtalanadigan shaxsga (benefitsiarga) sugʻurta hodisasi natijasida yoʻqolgan mulkka oʻxshash mulkni taqdim etganida daromad va xarajatlarni tan olishning zamonaviy usullarini alohida tartib sifatida belgilab beruvchi “Sugʻurta shartnomalari boʻyicha daromad va xarajatlarni shakllantirish” bandini kiritish orqali takomillashtirish taklifi “Kapital sugʻurta”AJ hisob siyosatiga kiritilgan (Kapital sugʻurta” AJning 2023-yil 9-iyundagi 02-06/1-7321-sonli maʼlumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida sugʻurta shartnomalarini tuzish jarayoni, ularni hujjatlashtirish tartibi, sugʻurta toʻlovlarini amalga oshirishni hisobga olish sxemasi, sugʻurta shartnomalari boʻyicha sugʻurtalovchining majburiyatlarini bajarish uchun resurslarning yetarliligini baholash algoritmi yordamida daromad va xarajatlarni tan olish hamda shakllantirishga taʼsir qiluvchi omillar aniqlanib, faoliyatning iqtisodiy samaradorligi 1,2 foizga oshishiga erishilgan;

sugʻurta xizmatlarini koʻrsatish va majburiyatlarni bajarish bilan bogʻliq xarajatlarni hisobga olishda 2610-“Qayta sugʻurtalash va birgalikda sugʻurtalash shartnomalari boʻyicha boshqa xarajatlar” nomli schyotni kiritish asosida qayta sugʻurtalash va birgalikda sugʻurtalash operatsiyalari hamda sugʻurta kompaniyasini boshqarish bilan bogʻliq boshqa xarajatlar toʻgʻrisidagi axborotni umumlashtirish taklifi “Kapital sugʻurta” AJ hamda “Kafil sugʻurta” AJ hisob siyosatida oʻz aksini topgan (“Kapital sugʻurta” AJning 2023-yil 9-iyundagi 02-06/1-7321-sonli hamda “Kafil sugʻurta” AJning 2023-yil 21-iyuldagi 8/6-98-sonli maʼlumotnomalari). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida qayta sugʻurtalash va

birgalikda sug'urtalash operatsiyalari, shuningdek, sug'urta kompaniyasini boshqarish bilan bog'liq boshqa xarajatlar to'g'risidagi axborotni umumlashtirish imkoni yaratilgan;

sug'urta kompaniyasida moliyaviy natijalar hisobini yuritishda biznes jarayonlarining taqdim etilgan tasnifi kesimida buxgalteriya hisobining marketing, sug'urta mahsulotini ishlab chiqish va sotish, andarrayting, sug'urta shartnomasini qo'llab-quvvatlash, yo'qotishlarni tartibga solish kabi funksional obyektlariga aniqlik kiritish orqali funksional sohalarning samaradorligini oshirish taklifi "Kafil sug'urta" AJda joriy etilgan ("Kafil sug'urta" AJning 2023-yil 21-iyuldagi 8/6-98-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida kompaniyani rivojlantirish muammolarini hal qilish, bozor ulushini oshirish, yangi sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish, aylanma mablag'lar va ularning investitsiyalaridan foyda hajmini oshirish, katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, sug'urta va moliya bozori modellari va prognozlarini yaratish orqali funksional sohalarning samaradorligini oshirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan hamda ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, shu jumladan, mahalliy OAK e'tirof etgan jurnallarda 6 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 3 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi tarkibiy jihatdan kirish, 3 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga olgan. Dissertatsiyaning hajmi 154 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib o'tilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi va dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obyekti, predmeti va usullariga tavsif berilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari yoritilgan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va joriy qilinishi izohlab berilgan, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sharoitida sug'urta tashkilotlarida moliyaviy natijalar hisobining nazariy-tashkiliy jihatlari**" deb nomlanib, sug'urta sohasining rivojlanish bosqichlari hamda moliyaviy natijalarining iqtisodiy mohiyati, sug'urta sohasining daromad va xarajatlari tarkibi, moliyaviy natijalar hisobining me'yoriy-huquqiy asoslari yoritilgan. O'zbekiston sug'urta bozoridagi sug'urta kompaniyalarining dinamikasi va tarkibi tahlil qilingan.

Iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sharoitida sug'urta bozorida raqobat muhitini yaratish, uning sug'urta kompaniyalari faoliyati rivojiga ijobiy ta'sir etishini ta'minlash, raqobat sharoitida sug'urtalanuvchi va potensial sug'urtalanuvchilar uchun sug'urta kompaniyalari tomonidan ham sifatli, ham arzon narxdagi,

shuningdek, qulay shartlardagi sugʻurta mahsulotlarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Soʻnggi paytlarda aholining oʻz ijtimoiy ahvoli, mulkiy manfaatlarini himoya qilishga intilishi hamda daromadlilik darajasining koʻtarilishi sugʻurta sohasida faoliyat yuritish istagidagi yuridik shaxslarning tashkil topishi va raqobatbardosh sugʻurta xizmatlari yaratilishiga ehtiyojini oshirmoqda.

Quyidagi 1-rasmda respublikamizda faoliyat yuritayotgan sugʻurta tashkilotlari tomonidan tuzilgan sugʻurta shartnomalari soni yildan-yilga ortib borayotganligini kurish mumkin.



1-rasm. Oʻzbekiston Respublikasida tuzilgan sugʻurta shartnomalar soni (ming dona)⁵

Sugʻurta tashkilotlarining daromad hajmi yildan-yilga ortib bormoqda, buni sugʻurta tashkilotlarining tuzilgan shartnomalari sonidan kelib chiqib aytish mumkin. Respublikamizda sugʻurta shartnomalari soni 2019-yilga nisbatan 2020-yilda -0,22 %ga, yaʼni 16,3 ming donaga kamayganligini koʻrish mumkin, bunga sabab 2020- yildagi pandemiya boʻlib, pandemiya nafaqat sugʻurta sohasiga, balki iqtisodiyotning barcha jabhalariga oʻz taʼsirini koʻrsatmay qolmadi. 2020-yilga nisbatan 2021-yilda 4,72 %ga oʻsganini, 2022-yil holatiga 2,82 %ga oʻsganini hamda 2023-yil 14.8 %ga oʻsib borayotganligini koʻrish mumkin, yaʼni sugurta shartnomalari sonining ortib borishi sugʻurta sohasining yildan-yilga rivojlanib borayotgani hamda sugʻurta sohasiga ishonch ortib borayotganining isbotidir.

Sugʻurta sohasini rivojlantirish zaruratini uning quyidagi xususiyatlarga egaligi bilan asoslash mumkin:

erkin raqobat muhitida har bir munosabatda xavf-xatar, tavakkalchilik va qaltisliklar mavjudligi;

sugʻurta kompaniyalari tomonidan favqulodda holat natijasida korxonaning faoliyati toʻxtab qolmasligi va faoliyatini davom ettirishini taʼminlanishi;

investitsiyalarni jalb etish zarurati;

hayot sugʻurtasi orqali aholinining ijtimoiy himoyasini bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida taʼminlashi;

mamlakat umumiy iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblanishi.

Shu jumladan sugʻurta xizmatlari bozorida raqobatni yanada rivojlantirish, sugʻurtalovchilarning kapitallashuv darajasini koʻpaytirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, keng qatlamdagi aholi sugʻurta xizmatlari bilan

⁵ www.napp.uz sayti maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

ta'minlanmoqda. Sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi raqobat rivojlanishi natijasida ko'rsatilayotgan sug'urtalash bo'yicha xizmatlar hajmi yildan-yilga o'sib borayotganligini quyidagi 1-jadvalda ko'rish mumkin.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi sug'urta tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan sug'urtalash bo'yicha xizmatlar hajmi (mlrd.so'mda)⁶

Hududlar	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2023-yilda 2018-yilga nisbatan % da
O'zbekiston Respublikasi	2 074,4	2333,5	3576,7	5 852,9	8 059,7	388,5
Qoraqolpog'iston Respublikasi	47,0	53,5	160,5	258,6	155,5	330,8
Andijon	77,4	80,0	137,7	159,1	163,7	211,5
Buxoro	77,9	85,0	110,3	165,9	209,1	268,4
Jizzax	56,4	51,2	59,7	70,7	103,8	184,04
Qashqadaryo	73,2	69,4	118,6	166,8	212,4	290,1
Navoiy	63,8	72,5	96,5	129,4	128,7	201,7
Namangan	89,6	89,7	119,7	157,7	170,5	190,2
Samarqand	79,6	86,1	114,0	144,8	185,4	232,9
Surxondaryo	61,4	56,6	70,9	78,8	138,4	225,4
Sirdaryo	42,4	47,9	55,1	70,0	71,9	169,5
Toshkent	163,7	172,3	139,9	165,7	190,7	116,4
Farg'ona	104,2	106,3	158,9	183,9	249,9	239,8
Xorazm	65,7	63,8	86,0	148,8	192,4	292,8
Toshkent shahri	1072,1	1299,2	2 148,8	3 952,6	5 886,5	549,06

2023-yil yakunlari bo'yicha sug'urta xizmatlari hajmi o'tgan yillarga nisbatan sezilarli o'sganligi, ya'ni jami 8 059,7 mlrd. so'mni tashkil etganligini ko'rish mumkin. 2019-yilda 2 074,4 mlrd. so'mni tashkil etganligi hisobga olinsa, tahlil qilayotgan davrda 4 barobar o'sganligini ta'kidlash mumkin.

Sug'urta kompaniyalarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ba'zi bir moliyaviy operatsiyalar faqat sug'urta kompaniyalariga xos bo'ladi. Bular sug'urta, qayta sug'urta va birgalikda sug'urtalash bilan bog'liq operatsiyalar, moliyaviy natijalarni aniqlash bilan bog'liq operatsiyalar va qisman moliyaviy investitsiyalar bilan bog'liq operatsiyalar. Barcha sug'urta operatsiyalari tabiati va buxgalteriya hisobida aks ettirish xususiyatlariga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

to'g'ridan-to'g'ri sug'urta operatsiyalari;


sug'urta kompaniyalari o'rtasida risklarni o'tkazish (qabul qilish) bilan bog'liq qayta sug'urta operatsiyalari;

sug'urtada bir nechta sug'urta kompaniyalari ishtirokida amalga oshiriladigan birgalikda sug'urta operatsiyalari.

Umumiy xulosa qilganda sug'urta tashkilotlarida sug'urta xizmatlaridan sof tushumlar oshgan, ammo sug'urta xizmatlarining tannarxi ham oshgan, ya'ni tushumga nisbatan uning salmog'i ko'proqni tashkil qilgan. Sug'urta tashkilotlari


⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

mablagʻlarni investitsiyaga yoʻnaltirish natijasida investitsion faoliyatdan daromad olgan va shuning evaziga faoliyatini foyda bilan yakunlagan.



2-rasm. Sugʻurta tashkiltolarining moliyaviy faoliyat daromad dinamikasi⁷

“Alfa invest”AJda 2022-yilda 2020-yilga nisbatan 113,1 %ga moliyaviy faoliyatdan daromadni koʻp olishga erishilgan. “Kapital sugʻurta” AJda 2022-yilda 2020-yilga nisbatan 274,4 %ga moliyaviy faoliyatdan daromad koʻp olishga erishilgan. “Kafil sugʻurta” AJda 2022-yilda 2020-yilga nisbatan 172,1 %ga moliyaviy faoliyatdan daromadni koʻp olishga erishilgan.



3-rasm. Sugʻurta tashkiltolarining sof foyda dinamikasi⁸

Sugʻurta tashkilotlarining jami sof foydasi tahlil qilinsa, “Kafil sugʻurta” AJning sof foydasi 2020-yilga nisbatan 240.4 %ni va “Kapital sugʻurta” AJning sof foyda koʻrsatkichi 2020-yilga nisbatan 107.5 %ni tashkil qilgan. “Alfa invest”AJda sof foyda 92.1 %ni tashkil qilgan, bunga sabab sugʻurta tashkilotining hayot sugʻurtasini amalga oshiruvchi shuʻba korxonasi zararda ekanligidir.

⁷ “Alfa Invest” AJ, “KafilSugʻurta” AJ va “Kapital Sugʻurta” AJlar maʼlumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

⁸ “Alfa Invest” AJ, “KafilSugʻurta” AJ va “Kapital Sugʻurta” AJlar maʼlumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Dissertatsiyada qator olimlarning moliyaviy natijalarga bergan ta'riflari o'rganilib, shu asosida muallif yondashuvi asosida ta'rif berildi. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy natijasi – sug'urta shartnomalari bo'yicha ishlab topilgan sug'urta mukofotlari va tan olingan boshqa daromadlar bilan tan olingan xarajatlarning farqi hamda zaxiralar o'zgarishining natijasidir” deb mualliflik ta'rifi berildi.

Daromad va xarajatlar moliyaviy natijalarni xarakterlovchi foydani o'lchashga daxldor elementlar hisoblanadi. Tadqiqot davomida sug'urta tashkilotlarida daromad va xarajatlarning tarkibi va tavsifi yoritib berilgan.

Xarajatlar sug'urta faoliyatini yuritish va sug'urta xizmatlarini ko'rsatish uchun sarflarning puldagi ifodasi hisoblanadi. Sug'urta tashkilotlarida asosiy daromad va xarajatlar hisobi o'ziga xosligi bilan farq qiladi. Sug'urtani amalga oshirish, qonunchilikda man etilmagan boshqa faoliyat bilan shug'ullanish natijasida hisob raqamiga kelib tushgan pul mablag'larining jami uning daromadi hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda sug'urta tashkilotining xarajatlari akvizitsiya, inkassatsiya, likvidatsiya va boshqaruvga oid turlardan iborat. Sug'urta tashkiloti xarajatining tarkibi ham xilma-xildir. Buni quyidagi 2-jadvalda kuzatish mumkin.

2-jadval

Sug'urta tashkilotining xarajat turlari va tasniflanishi⁹

Xarajat turlari	Xarajatlarning tasnifi		
	Asosiy faoliyat bo'yicha	Maqsadli faoliyat bo'yicha	Amalga oshirish vaqtiga ko'ra
Ma'muriy-xo'jalik yuritish xarajatlari	Sug'urtalash bilan bevosita bog'liq bo'lmagan xarajatlar	Shartnomani amalga oshirish xarajatlari	Shartnomani amalga oshirish jarayonida
Vositachilik taqdirlashlarini undirish xarajatlari	Sug'urta operatsiyalarini amalga oshirish xarajatlari	Shartnomani tayyorlash va tuzish xarajatlari	Shartnomani amalga oshirish jarayonida
Reklama va marketing xizmati xarajatlari	Sug'urtalash bilan bevosita bog'liq bo'lmagan xarajatlar	Shartnomani tayyorlash va tuzish xarajatlari	Shartnomani tuzishga qadar
Maxsus ish qog'ozlarini tayyorlash xarajatlari	Sug'urta operatsiyalarini amalga oshirish xarajatlari	Shartnomani tayyorlash va tuzish xarajatlari	Shartnomani tuzishga qadar
Sug'urta zaxiralariга ajratmalar	Sug'urta operatsiyalarini amalga oshirish xarajatlari	Shartnomani bajarish xarajatlari	Shartnomani amalga oshirish jarayonida
Qayta sug'urtalash xarajatlari	Sug'urta operatsiyalarini amalga oshirish xarajatlari	Shartnomani bajarish xarajatlari	Shartnomani amalga oshirish jarayonida
Investitsiya joylashtiruv xarajatlari	Sug'urtalash bilan bevosita bog'liq bo'lmagan xarajatlar	Shartnomani bajarish xarajatlari	Shartnomani amalga oshirish jarayonida
Sug'urta qoplamasi xarajatlari	Sug'urta operatsiyalarini amalga oshirish xarajatlari	Shartnomani bajarish xarajatlari	Sug'urta hodisasi yuz berganda

Sug'urta xizmatlarini ko'rsatishdan olingan foyda o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir etishi mumkin:

sug'urta tashkilotining o'ziga bog'liq omillar yoki ichki omillar;

⁹ Muallif tomonidan tuzilgan

sug'urta tashkilotining o'ziga bog'liq bo'lmagan omillar yoki tashqi omillar.

Muallifning fikricha, sug'urta tashkilotlarida daromad va xarajatlar hisobini to'g'ri tashkil qilishda daromad va xarajatlar to'g'risida kompaniyaning ichki nizomini ishlab chiqish o'rindir.

Tadqiqot natijasidan kelib chiqib, mantiqiy ravishda sug'urta kompaniyasining hisob siyosatiga "Sug'urta shartnomalari bo'yicha daromad va xarajatlar" bandini kiritishni takliflari taqdim etilgan. Mazkur taklifga muvofiq quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq:

1) sug'urta shartnomalari, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urtalashga qabul qilingan shartnomalar bo'yicha sug'urta mukofotlarini hisobga olishda daromad deb e'tirof etilgan vaqt, bu sug'urta shartnomasi bo'yicha javobgarlik boshlanganligi (sug'urta qoplamasi boshlanadi) bilan aniq bog'lanishi kerak;

2) sug'urta to'lovi (sug'urta to'voni) sug'urtalovchining buxgalteriya hisobidagi yo'qolgan mol-mulkka o'xshash mol-mulk bilan almashtirilgan taqdirda, sug'urta to'lovining kelishilgan qiymati o'rtasidagi tafovutlar boshqa daromad va xarajatlarning bir qismi sifatida tan olinishi kerak.

Sug'urta to'lovini (sug'urta to'vonini) yo'qolgan mol-mulkka o'xshash mol-mulk bilan almashtirishda ushbu mol-mulk sug'urta hodisasi natijasida yetkazilgan haqiqiy zarar miqdoriga teng va shartnoma bo'yicha sug'urta summasidan oshmaydigan kelishilgan qiymat bo'yicha sug'urta qildiruvchiga (benefitsiarga) beriladi.

Bunda: a) agar berilgan mol-mulkning balans qiymati polis egasi bilan kelishilgan haqiqiy zarar miqdoriga teng qiymatdan katta bo'lsa, farq sug'urta tashkilotining boshqa xarajatlarga taalluqlidir;

b) agar berilgan mol-mulkning balans qiymati polis egasi bilan kelishilgan qiymatdan kam bo'lsa, haqiqiy zarar miqdoriga teng bo'lsa, farq sug'urta tashkilotining boshqa daromadlariga tegishli;

3) daromadlarni sug'urtalovchining buxgalteriya hisobida aks ettirish – qayta sug'urta qildiruvchilardan qayta sug'urta qilingan sug'urta, birgalikda sug'urta va qayta sug'urta shartnomalari bo'yicha to'lovlarni (ulushlarni) qoplashga doir bo'lsa:

a) u holda alohida sug'urta shartnomasini qayta sug'urta qilishda yoki bir guruh shartnomalarni qayta sug'urta qilishda qayta sug'urtalovchini alohida to'g'ridan-to'g'ri sug'urtaga tegishli bo'lgan sug'urta to'lovida qayta sug'urtalovchiga qadar aniqlash mumkin va maqsadga muvofiq bo'lsa, qayta sug'urta shartnomasi asosida uni asosiy sug'urta to'lovini aks ettirish vaqti bo'ladi, bunda qayta sug'urtalovchining sug'urta to'lovidagi ulushini uni amalga oshirish vaqtida qoplash bo'yicha majburiyati yuzaga kelishi lozim;

b) bir guruh shartnomalarni qayta sug'urtalashda, agar qayta sug'urtalovchining sug'urta to'lovidagi ulushini aniqlashning iloji bo'lmasa yoki maqsadga muvofiq bo'lmasa, alohida to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomasiga kelib, qayta sug'urtalovchilarning sug'urta to'lovlaridagi ulushini qayta sug'urta shartnomasi shartlaridan kelib chiqadigan uning ta'rifining xususiyatlariga qarab baholanishi kerak bo'lgan vaqtda hisoblash mantiqan to'g'ri keladi;

4) subrogatsiya va regressiya talablari bo'yicha daromadlarda qayta sug'urtalovchining ulushini aks ettirish vaqti: qayta sug'urtalovchining subrogatsiya

tushumlaridagi ulushi (regressiya xarajatlari) to'g'ridan-to'g'ri sug'urtalovchi uchun xarajat bo'lib, subrogatsiya bo'yicha daromadni tan olish paytida qayta sug'urtalovchiga va majburiyatlarini bir vaqtning o'zida tan olgan holda xarajatlar sifatida qaytarilishi va hisobga olinishi kerak. Qayta sug'urtalovchi qayta sug'urtalash operatsiyalarini aks ettirishning "ko'zgu" tamoyiliga rioya qilish uchun bunday daromadlarni qayta sug'urtalovchi bilan bir vaqtda tan olishi maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga, qayta sug'urtalovchi qayta sug'urtalovchiga hisobot davrida yoki hech bo'lmaganda undan keyin, lekin hisobot imzolangan sanadan oldin amalga oshirilgan huquq to'g'risida juda kech xabar bergan holatlar uchun obyektiv istisno belgilash mumkin. Bunday holatlar uchun qayta sug'urtalovchidan subrogatsiya (regressiya) bo'yicha daromadni tan olish sanasini belgilash taklif etiladi – bu haqda sug'urta qildiruvchi ma'lum bo'lgan sana va bu haqda xabar beruvchi hujjat kelib tushgan sana asos qilib olinadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobini "**Sug'urta operatsiyalari bo'yicha daromad va xarajatlarni hisobga olish va uni takomillashtirish yo'nalishlari**" deb nomlanib, sug'urta xizmatlari ko'rsatishdan olingan daromadlar hisobining amaliy holati, birgalikda sug'urtalash va qayta sug'urtalash operatsiyalari bo'yicha daromad va xarajatlarni hisobga olishning zamonaviy amaliyoti, sug'urta tashkilotlarida moliyaviy natijalar hisobining amaliyoti tadqiq etilgan. To'g'ridan-to'g'ri sug'urta operatsiyalarini hisobga olish sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlarini hisobga olish va sug'urta to'lovlarini hisobga olish bo'yicha farqlanadi. To'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari sug'urta tashkilotining asosiy daromad manbasi hisoblanadi. Sug'urta to'lovlari iqtisodiy foyda keltirmaydigan xarajatlar bo'lib, ular odatda sug'urta tashkilotlarining umumiy xarajatlari tarkibida eng katta ulushni tashkil qiladi.

To'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomalari bo'yicha daromadlarni hisobga olish uchun 9000-"Asosiy faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi" schyoti, 9030-"Sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari" schyot mo'ljallangan bo'lib, bunda sug'urta tashkilotlari tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urtalanuvchilardan, sug'urta agentlaridan, sug'urta brokerlaridan olinishi lozim bo'lgan badallarini hisobga oladilar.

Umumiy sug'urta faoliyatiga oid sug'urta shartnomalari bo'yicha hisobot davrida sug'urtalovchilardan olinishi kerak bo'lgan hisoblangan sug'urta mukofotlari (badallari) summalari bo'yicha quyidagi buxgalteriya yozuvi kiritiladi:

Dt 4030-"Sug'urta qildiruvchilardan olinadigan schyot"

Kt 6820-"To'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari"

O'rganilayotgan sug'urta kompaniyalarining buxgalteriya hisobi tizimida sug'urtalangan jismoniy shaxslardan sug'urta mukofotlari to'g'ridan-to'g'ri sug'urtalovchining kassasiga tushadigan holatlar mavjud. Ikkinchisi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Dt 5010-"Kassa"

Kt 6330-"Sug'urta qildiruvchilardan olingan bo'nak sug'urta mukofotlari"

Dt 6330-"Sug'urta qildiruvchilardan olingan bo'nak sug'urta mukofotlari"

Kt 6280-“To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari”

Muallifning fikricha, ko‘rib chiqilayotgan vaziyatni bunday aks ettirishni yetarlicha to‘g‘ri, chunki sug‘urta mukofotlari hisoblash usuli bo‘yicha hisobga olinadi. Ushbu yozuv MHXS talablariga javob bermaydi. Sug‘urtalovchining moliyaviy hisobotlari asosida buxgalteriya ma‘lumotlarini shunday shakllantirish bilan sug‘urta tashkilotining to‘lanmagan sug‘urta mukofoti bo‘yicha debitorlik qarzlari ko‘rsatkichlarini ishonchli tahlil qilish mumkin emas. Sug‘urta shartnomasi bo‘yicha hisoblangan sug‘urta mukofoti summasi sug‘urta agenti orqali sug‘urtalovchining hisob raqamiga to‘liq yoki qisman kelib tushganligini hisobga olib, sug‘urta shartnomasida hisob-kitoblarning holatini quyidagicha aks ettirish zarur:


Dt 4040-“Sug‘urta agentlari, sug‘urta brokerlari bilan sug‘urta mukofotlari bo‘yicha hisob-kitoblar”

Kt 9030-“Sug‘urta mukofotlari bo‘yicha sug‘urtalanuvchilar bilan hisob-kitoblar”

Muallifning fikricha, sug‘urta mukofoti bo‘yicha qarz sug‘urtalanuvchidan hisoblanishi kerak va sug‘urta vositachisi orqali undan pul miqdori to‘lanadi. Bundan tashqari, sug‘urta shartnomasi bekor qilinganda sug‘urta mukofotlari yoki to‘lov summalari sug‘urtalanuvchiga qaytariladi va sug‘urta mukofotining to‘lanmagan qismi bo‘yicha qarz, agar mavjud bo‘lsa, vositachi zimmasiga yuklatiladi.

Dissertatsiyada yetakchi sug‘urta kompaniyasi bilan birgalikda sug‘urta operatsiyalarini amalga oshirishdan olinadigan daromad va xarajatlarni shakllantirish bo‘yicha buxgalteriya hisobi tizimini umumlashtirish taklif etilgan.

Boshqaruv hisobi doirasida shakllangan axborot-tahliliy baza tashkilotning biznes-jarayonlarini boshqarish funksiyalarini amalga oshirish uchun asos hisoblanadi. Shu bilan birga, mutaxassislar buxgalteriya hisobi ma‘lumotlarining ahamiyatini quyidagicha ta‘kidlaydilar: boshqaruv hisobi boshqaruv tizimidir, chunki uning sifati va buxgalteriya hisobida yetarli darajada aks etishi boshqaruv qarorlarining sifati ko‘p jihatdan oldindan belgilaydi.



4-rasm. Sug‘urta kompaniyalarining biznes jarayonlari¹⁰


¹⁰ Muallif ishanmasi

Sug'urta tashkilotlarida boshqaruv hisobining tashkiliy tuzilmasi, muallifning fikricha, birinchi navbatda, 2-rasmda ko'rsatilgan sug'urta kompaniyasi faoliyatini tavsiflovchi biznes jarayonlariga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Sug'urtalovchining vazifalarini bajarish samaradorligi, birinchi navbatda, tashkiliy tuzilishga bog'liqdir.

